

O'QUVCHILARNI EKOLOGIK TARBIYA BERISHGA TAYYORLASH MEZONLARI

1. B.X.Bozorboyeva

2. F.M.Yuldosheva

3. O.B.Kenjayev

Guliston tumani 28-maktab biologiya fani o'qituvchi, Guliston tumani 10-maktab biologiya fani o'qituvchi, Mirzaobod tumani 21- maktab o'qituvchisi,

E-mail:maktab28*gul@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7787994>

Annotatsiya: Ushbu maqolada, yoshlarni ekologik ong va ekologik madaniyatini shakllantirish hamda ekologik tarbiya berishga tayyorlash mezonlari haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Ekologik ong, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik madaniyat, ekologik faoliyat, tabiat komponentlari.

Inson tabiat mahsuli bo'lish bilan birga, atrof muhit holatin o'zgartirishga qodir bo'lgan geobiologik kuch hamdir. Insoniyatning tabiat, atrof-muhit bilan muloqoti muhim ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Bu muloqot ikki xil yo'nalishda: jismoniy (kuch) va ma'naviy (so'z) orqali bo'ladi. Inson tabiat bilan muloqot qilganda jismoniy xarakteridan foydalaniladi. Bu harakat o'ziga va atrof- muhitga nisbatan ijobiy yoki salbiy bo'lishi mumkin. Biosferada yashovchi jonli mavjudot hisoblanmish insoniyat bir-biri bilan so'z orqali muloqot qiladi. Insonlarning bir-birlariga aytayotgan so'zlari ijobiy yoki salbiy natija beradi. Bu natija insoniyatning o'ziga ham, atrof muhitga ham ta'sir etadi.

Inson atrof-muhit, tabiat komponentlari (suv, havo, tuproq, quyosh) bilan aqliy va jismoniy quvvati yordamida muloqot qiladi. Bu muloqot ijobiy va salbiy bo'ladi. Agar muloqot ijobiy bo'lsa atrof-muhit gullab yashnaydi. Salbiy bo'lsa atrof muhit vayron bo'ladi. Bunday jarayonlar tarixda bir necha bor sodir bo'lgan. Atrof- muhit talofat ko'rib, insoniyat aziyat chekkan. Hozir ham shunday holatlar kuzatilmoqda. Ayniqsa, insoniyatning atrof-muhit, tabiat bilan muloqot madaniyati hamda Avesto, Qur'oni Karim, Hadisi shariflarda, donishmand, alloma va shoirlarning asarlarida, xalq pedagogikasida batafsil fikrlar keltirilgan.

Tabiat bilan inson orasidagi munosabatlarni anglab yetgan alloma, donishmand, olim, din arboblari insoniyatning o'zi va olam haqidagi tasavvurlarini oshirib, to'g'ri yo'lga boshlaganlar. Tajribalar shuni ko'rsatdiki, ajdodlarimizning tabiat, atrof-muhit haqidagi hikmatli, dono, mazmunli g'oyalarini o'rganish insonni yuksak ekologik ma'naviyatga yo'llaydi. Tabiat va inson orasidagi munosabatlarni anglatuvchi alloma, donishmandlarning duru-gavharlarini jamlash, ularni saralash. Tizimlashtirish va undan ta'lim-tarbiya jarayonida foydalanish muhim ahamiyatga ega bo'lsa-da, biroq ushbu muammo hozirgacha ilmiy-pedagogik jihatdan hal etilmagan. Bu hol ta'lim-tarbiya sifatiga salbiy ta'sir etadi.

Ekologik ta'lim o'quvchiga aniq maqsadga muvofiq, izchil, tizimli va uzluksiz ravishda nazariy ekologik bilimlarni berishga yo'naltirilgan ta'limiy jarayonidir. Nazariy ekologik bilimlar (ekologik ong) hamda atrof-muhit va tabiat muhofazasi yo'lida olib borilayotgan faoliyat birligi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi. Ekologik ong tabiat va atrof-muhitning mavjud holati, ularni muhofaza etish borasidagi tushunchalarning ongdagi ifodasi bo'lib, u murakkab ijtimoiy-psixologik hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Ekologik faoliyat esa ekologik bilimlarga tayanilgan holda tabiat va atrof-muhit muhofazasini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan xatti-harakatlar majmui demakdir.

O'zbekiston Respublikasida tabiat va atrof-muhit muhofazasini tashkil etishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu yo'lda amalga oshiriluvchi ijtimoiy-ekologik harakat mazmuni «O'zbekiston Respublikasining Atrof-muhitni muhofaza qilish Milliy harakat rejasi»da o'z ifodasini topgan. Tabiat va atrof-muhitni muhofaza qilish, shuningdek, ekologik muammolarning ijtimoiy xavfi xususida to'xtalib, O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimov quyidagi fikrni qayd etadi: «Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachon milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Ekologiya hozirgi zamonning keng miqyosidagi keskin ijtimoiy muammolaridan biridir. Uni hal etish barcha xalqlarning manfaatlariga mos bo'lib, tsivilizatsiyaning hozirgi kuni va kelajagi ko'p jihatdan ana shu muammoning hal qilinishiga bog'liqdir».

O'quvchilarda tabiatga nisbatan to'g'ri munosabatni qaror toptirish, mehr-muhabbatni uyg'otish, atrof-muhit musaffoligiga erishish ekologik muammolarni hal etish yo'lida muhim bosqich sanaladi.

Bolalar atrof-olamni qiziqib, muntazam o'rganib borishlarini hisobga olgan holda, maktabgacha yoshdagi tarbiyalanuvchilarda o'zi yashayotgan joyi va tabiati, hayvonot va o'simliklar olami, tabiiy boyliklari haqida to'liq tasavvur shakllantirish zarur. Inson hamisha tabiat bilan uyg'unlikda yashaydi, tabiat bilan nafas olib, tabiat qo'ynida hayot kechiradi. Atrofimizni o'rab turgan olamda tabiatning bir qarashda juda oddiy va shu bilan birga juda murakkab sir-sinoatlari, mo'jizalari, jumboqlari ham hali juda ko'p.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarni tevarak-atrof bilan, tabiat bilan tanishtirish mashg'ulotlari tabiatni chuqur anglash, ona tabiatga va ona yurtiga mehr-muhabbat uyg'otish, tabiiy boyliklardan foydalanish va ularni asrash yuzasidan sodda bilimlarni shakllantirishga qaratilgan. Ekologik tarbiyani olib borish chog'ida – o'quvchilarga ekologik bilimlar berish asosida shaxs, jamiyat va tabiat birligi hamda aloqadorligini o'quvchilarga tushuntirish, ularda ekotizimning inson, insoniyat, jamiyat taraqqiyotidagi muhim o'rni va mohiyati borasidagi tushunchalarni qaror toptirish, tabiatga nisbatan ehtiyotkorona va mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, tabiatni asrash to'g'risida g'amxo'rlik qilish kabi tuyg'ularni qaror toptirish, shuningdek, ekologik madaniyatni shakllantirish lozim.

Ekologik tarbiyaning bosh maqsadi o'sib kelayotgan yosh avlod, fuqarolarda tabiatga va tabiiy muhitga nisbatan iste'molchilik munosabatini bartaraf qilib, u bilan uyg'unlikda yashash hamda unga mas'uliyatli munosabagai shakllantirishdan iboratdir. Tabiatdaga jamiki narsalar - butun borliq, tevarak-atrof, havo, suv, adiru dadalar, tog'u tosh, o'rmonlarning tozaliga, ularning ifloslanishining oldini olish va muhofaza qilish, o'simliklar va hayvonot dunyosini asrash, parvarish qilish va ko'paytirish ekologik ta'lim-tarbiya mazmunini tashkil qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ekologik madaniyatini shakllantirish jarayonida tarbiyachi quyidaga vazifalarga etibor berishi lozim:

1. Jonli va jonsiz tabiat, tevarak-atrofdagi kishilarmehnatini haqidagi tasavvur va tushunchalarni shakllantirishhamda rivojlantirish.
2. Tabiat va kishilar mehnatidagi mavsumiy o'zgarishlarni kuzatish.
3. Bolalar dunyoqarashini shakllantirish maqsadida jonli va jonsiz tabiatdaga voqelikni bolalar bilan doimiy kuzatib borish.
4. Tabiat xodisalari o'rtasidagi o'zaro aloqani ochib berish tabiatning odamlar mehnatiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatish.
5. Tabiatni asrashning ahamiyati haqidagi bilimlarni kengaytirib borish.

6. Sanitariya-gigiena haqidagi dastlabki bilimlarni shakllantirish.

Tabiat, tevarak-atrof bilan tanishtirni mashg'ulotlarida bolalarga mantiqiy fikrlashni o'rgatishga, yoshi me'yorlari doirasida nutq, mehnat ko'nikmalari va malakalarini shakllantirishga, intizom, o'zaro yordam, mehnatga muxabbat uyg'otish, boshlab qo'ygan ishini oxiriga etkazish kabi xislatlarni tarbiyalashga alohida e'tibor berish zarur.

Ekologik ta'lim-tarbiya berish jarayonida badiiy adabiyot, qurish-yasash, tasviriy san'at mashg'ulotlarining o'zaro aloqasi muhim ahamiyatga ega. Ekologik ta'lim-tarbiya jarayonida kuzatish, ekskursiya, guruh maydonchalari va tabiat burchaklarida kattalar mehnatiga yordam berish, tajribalar o'tkazish ishlari etakchi o'ringa ega. Ekskursiyalar davomida tabiat hodisalariga, tabiat jismlariga katta e'tibor beriladi. Ta'lim tizimida islohotlar o'tkazish zaruriyati, ta'limning yangi modelining amaliyotga tatbiq etilishi maktabgacha ta'lim tizimiga ham yangi pedagogik texnologiyalar, interfaol usullar kiritilishini talab etmoqda.

Innovatsion ta'lim berishning asosiy mezonlari mashg'ulotlar davomida norasmiy munosabatlar, mavzuni erkin ifodalash, individual va jamoa bo'lib fikrlashni nazarda tutadi. Interfaol usullar pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi xisoblanadi. Bu usullarning o'ziga xosliga shundaki, ular faqat tarbiyachi va tarbiyalanuvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Tarbiyachi ta'lim jarayoni tashkilotchisi, rahbari va nazoratchisi hamdir. Tarbiyalanuvchi mashg'ulog davomida o'zini erkin his qilishi va jarayon emotsional jihatdan uni qoniqtirishi, ya'ni unga yoqiish lozim, shunda u o'z fikrlarini erkin bayon eta oladi. Tarbiyachi yanga bilim berganidan keyin, bola mavzuni qanday o'zlashgarganini, uning fikrini bilish, bilimni sinash, ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun savolni, albatga, to'g'ri qo'ya olishi kerak. Savollar berishda quyidagilarga e'tibor berish zarur:

- savollar aniq va qisqa bo'lishi;
- bitta savol bilan bitta narsani so'rashi;
- savol aynan mavzuga doir bo'lib, bolaga tushunarli bo'lishi;
- savollar "yopiq" emas, balki "ochiq" bo'lishi;

-tez-tez "nima uchun?", "sen nega bunday deb o'ylaysan?", degan savollar bilan murojaat qilishi kerak bo'ladi. Savol berganda, javobini ma'lum bir mudat kuyish kerak va zarur bo'lsa, savolni boshqacharaq talqinda takrorlash mumkin, lekin har qaysi vaziyatda ham javobni, imkon qadar aytib qo'ymaslik zarur. Interfaol usullar xilma-xil bo'lib, qaysi usulni tanlash tarbiyachining o'tayotgan mavzusi, darsning maqsadi va vazifalariga bog'liq bo'lishi lozim. Yoshlar tarbiyasida ishtirok etayotgan sub'ektlarning shaxsiy namunalarini, o'quv manbalari, badiiy adabiyotlar, ommaviy axborot vositalari, internet resurslari va ularning g'oyalari yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishning muhim vositalari sanaladi.

References:

1. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.- T.: O'zbekiston, 1997.- 137-bet.
2. E.O. Turdiqulov. Ijtimoiy ekologik g'oyalardan ta'lim jarayonida foydalanish.-T.: 2014 y
3. N.N.Azizxodjaeva. Педагогические технологии и педагогическое мастерство. — T.: ТГПУ, 2003г.